# ONA TILI O‘QITISH METODIKASIDA FANLARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY ASOSLARI

**Yuldosheva Dilshoda Shuxratovna**
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola ona tili o‘qitish metodikasida fanlararo integratsiyani nazariy asoslari, uning ta’lim jarayonida o‘rni hamda pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi. Fanlararo integratsiya kontseptsiyasi ta’limning kompleks mazmuni orqali ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Integratsiya yondashuvi til o‘rgatishda o‘quv jarayonini boyitadi, o‘quvchilarning dunyoqarashi va muloqot kompetensiyalarini oshiradi. Maqola pedagogik tamoyillar, didaktik usullar hamda ilmiy nazariyalar asosida amalga oshirilgan tahlil natijalarini o‘z ichiga oladi.*

***Kalit so`zlar:*** *ona tili o‘qitish metodikasi, fanlararo integratsiya, integrativ ta’lim, pedagogik yondashuv, didaktik tamoyillar, kompetensiyaviy yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, nutqiy kompetensiya, ta’lim samaradorligi, zamonaviy ta’lim texnologiyalari.*

Hozirgi kunda ta’lim sohasida juda ko‘plab o‘zgarishlar va innovatsiyalar kiritilmoqda. Bu o‘z o‘zida ta’lim sohasini rivojlantirishning asosiy sababi hisoblanadi. Shunday yangiliklardan biri bu fanlararo integratsiyalashdir. So‘nggi paytlarda boshlang‘ich maktab ta’limda fanlararo yondashuv asosiy e’tiborga sazovor bo‘ldi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari

faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”,-degan fikri muhimdir [1].

Ona tili o‘qitish metodikasi pedagogik fan bo‘lib, til egallash jarayonlarini sistemali ravishda o‘rganadi. Uning muhim vazifalaridan biri — til o‘rgatishda boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlashdir. Fanlararo integratsiya (interdisciplinary integration) ta’lim jarayonida turli fanlar mazmunini uzviy birlashtirish orqali o‘quvchilarga bilimlarni umumlashtirish, amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi [2]. Integratsiyaning nazariy asoslari pedagogika, umumdidaktika va metodika nazariyalariga tayanadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda fanlararo integratsiya didaktik, mazmuniy va metodik nuqtai nazardan ifodalanadi [3].

Mamlakatimizda fanlararo integratsiyani takomillashtirish fan-texnikaning rivojlanishida, shuningdek, yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim tizimiga, jumladan, boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini fanlararo integratsiya mazmunida takomillashtirish bo‘yicha samarali tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta’minlanadi [4].

Fanlararo integratsiya (lot. integratio — bir butunlikka keltirish) — ta’lim jarayonida turli fanlarning bilimlari, uslublari va metodlarini uyg‘un birlashtirish orqali o‘quvchilarning bilim darajasini chuqurroq egallashini ta’minlashdir. Pedagogik adabiyotlarda integratsiya turlari: didaktik integratsiya — bilimlararo bog‘liqlikni ta’minlash, mazmuniy integratsiya — bir xil mavzuni turli fanlar orqali yoritish, metodik integratsiya — usullar uyg‘unligi, texnologik integratsiya — pedagogik texnologiyalar birlashuvi tariqasida ko‘riladi [5].

Nazariy nuqtai nazardan integratsiya didaktika va umumiy pedagogika tamoyillariga tayanadi. Integratsiyalashgan ta'lim o'quvchini markazga qo'yadi va ularning shaxsiy bilimini shakllantirishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuv ijtimoiy-sotsiokultural, kognitiv va konstruktivistik pedagogik nazariyalar bilan izohlanadi, bu esa o'quvchilarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, til o'rgatish jarayonida fanlararo bog'liqlik tilni faqat grammatika tizimi emas, balki madaniy muhitda qo'llash imkoniyati sifatida anglashga yordam beradi [6].

Bu yondashuv o'quvchilarni turli fanlarda o'rganilgan bilimlarni bir-biriga bog'lab, real hayotda qo'llashga o'rgatadi. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, fanlararo integratsiya:

- mavzularni hayotiy voqelik bilan bog'laydi;
- o'quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi;
- o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi;
- kreativ yondashuv va mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi [7].

Ona tili o'qitish jarayonida integratsiya o'quvchilarga lingvistik, mantiqiy va kommunikativ ko'nikmalarni birgalikda shakllantirish imkonini beradi. Ona tili darslarida adabiyot, tarix, madaniyatshunoslik kabi fanlar mazmunini uzviy ravishda bog'lash o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning dunyoqarashini kengaytiradi [8].

Masalan, til o'rgatish jarayonida tarixiy mavzularni kiritish orqali o'quvchi ma'lumotni kontekstda qabul qiladi, adabiyot bilan bog'liq topshiriqlar orqali tilni mazmunli ijodiy jarayonda qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Bu yondashuv integrativ darslarni amalga oshirish orqali o'quvchilarda

kompleks til kompetensiyalarini, ya’ni tinglab tushunish, o‘qish, yozish va muloqot qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi [9].

Fanlararo integratsiyani samarali amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik tamoyillar muhim hisoblanadi:

- Mazmunning uyg‘unligi - turli fanlarning mazmuni o‘rtasida uzviy bog‘liqlik asosida tanlanishi.
- Meta-bilim shakllantirish - o‘quvchilarga turli fan kontseptsiyalarini umumiy prinsiplar orqali tushunishga yo‘naltirish.
- Faollik prinsipi - O‘quvchilarning mustaqil, ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish.
- O‘lchov va baholash - integratsiya asosida o‘quv natijalarini baholashda fanlararo kompetensiyalar hisobga olinadi [10].

Bir qator ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalarini sarhisob qilsak, ilmiy va texnologik inqilobning barcha yutuqlari va samaralari insoniyat uchun keng darajada muhim ahamiyat kasb etdi. Ilm-fandagi burilishlarni aks ettiradigan inson psixikasida bunday sifatli o‘zgarish – bu tashqi va ichki ma’lumotlarni inson tomonidan idrok etilishi va tahlildan o‘tkazish qobiliyati takomillashishi bilan bog‘liq [11].

Nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, integratsiya metodikasining samarali bo‘lishi o‘qituvchining metodik tayyorgarligiga, dars rejalashtirish mahoratiga va interaktiv pedagogik texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatiga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, Ona tili o‘qitish metodikasida fanlararo integratsiyaning nazariy asoslari pedagogik, didaktik va metodik yondashuvlar orqali mustahkamlanadi. Integratsiya ta’lim jarayonini boyitadi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks tarzda

shakllantiradi hamda til o‘rgatish jarayonini amaliy kontekst bilan bog‘laydi. Nazariy asoslarning chuqur tahlili pedagogik jarayonda fanlararo integratsiya metodikasini samarali joriy etishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Toshkent, 2016
2. Rasulova D. R. Ona tilini o‘qitishda fanlararo integratsiya va usullardan foydalanish. – Samarqand: Uzbek Scholar Journal, 2022. – 200–204-betlar.
3. Abdullayeva M. A. Fanlararo integratsiya asosida o‘qitishning samaradorligi. – Toshkent: Journal of New Century Innovations, 2025.
4. I.A. Elmurodova. Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini fanlararo integratsiya mazmunida o‘qitishning amaliy asoslari. Inter education & Global study, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Научно-теоретический и методический журнал Scientific theoretical and methodical journal, ISSN 2992-9024 (online) 2025, №1
5. Qodirova N. S. Ona tili darslarini integratsiya usullarida tashkil qilish. – Varshava: European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 2023.
6. Burxanova Sh.M. Fanlararo integratsiya asosida ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish tajribalari. new modern researchers: Modern proposals and solutions. International online conference. Date: 25thJune-2025
7. To‘xtayeva, G. B. – Toshkent: Innovative Adabiyot o‘qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish.Development in Educational Activities, 2023.

8. Ruzmatova D. X. Theoretical Foundations of Language Teaching Based on Interdisciplinary Integration. – Toshkent: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2025.

9. Yo‘ldoshev J. G, Usmonov, S. A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

10. Mahmudov N, Nurmonov A. Ona tili ta’limining zamonaviy muammolari. – Toshkent: Fan, 2017.

11. Siddiqova S.G‘. Ta’lim jarayoniga integrativ yondashuvning falsafiy va psixologik jihatlari. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 4 | 2024